

Hamidova Muhayyoxon Obidovna

*Namangan davlat universiteti, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi professori,
f.f.n.*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

NASRIY ASARLARDA QAHRAMONGA MUNOSABAT

Annotatsiya: O'zbek adabiyotining yetuk darg'alaridan biri Shukur Xolmirzayevdir. Adibning nasr taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir, shu bilan bir qatorda uning xarakter yaratish mahorati, ijodkorning poetik uslubini yuzaga chiqarish imkonini bergan. *Mazkur maqolada nasriy asarlarda qahramonga munosabat Shukur Xolmirzayevning "Bandi burgut", "O'zbek xarakteri" hikoyalari misolida ochib beriladi.* Bir hikoyalar asosida adibning badiiy mahorati va xarakter yaratish jarayonidagi ifoda shakllari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: *uslub, yozuvchi individualligi, badiiy tahlil, xarakter, voqealar rivoji, shakl va mazmun, asar g'oyasi, yozuvchi dunyoqarashi, personajlar taqdiri, dunyoqarash va yondashuv.*

Хамидова Мухайёхон Обидовна

Наманганский государственный университет, профессор кафедры дошкольного и начального образования, кандидат филологических наук

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

ОТНОШЕНИЕ К ГЕРОЮ В ПРОЗАИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация: Одним из великих мастеров узбекской литературы является Шукур Холмирзаев. Роль писателя в развитии прозы не имеет себе равных, а его мастерство в создании образов позволило раскрыть поэтический стиль творца. В статье рассматривается отношение к герою в прозаических произведениях на примере рассказов Шукура Холмирзаева «Бандитский орел» и «Узбекский характер». На примере одного рассказа проанализированы художественное мастерство и формы выражения писателя в процессе создания персонажей.

Ключевые слова: стиль, индивидуальность писателя, художественный анализ, персонаж, развитие событий, форма и содержание, идея произведения, мировоззрение писателя, судьбы персонажей, мировоззрение и подход.

Khamidova Mukhayyoxon Obidovna

*Namangan State University, Professor, Department of Preschool and Primary
Education, candidate of philological sciences*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

ATTITUDE TOWARDS THE HERO IN PROSE WORKS

Annotation: One of the great masters of Uzbek literature is Shukur Kholmirzayev. The writer's role in the development of prose is incomparable, and at the same time his skill in creating characters allowed him to reveal the poetic style of the creator. This article reveals the attitude to the hero in prose works using the examples of Shukur Kholmirzayev's stories "The Bandit Eagle" and "Uzbek Character". Based on one of the stories, the writer's artistic skill and the forms of expression in the process of creating characters were analyzed.

Keywords: style, writer's individuality, artistic analysis, character, development of events, form and content, idea of the work, writer's worldview, fate of characters, worldview and approach.

Kirish

O'zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri, iste'dodli adib Shukur Xolmirzayevdir. Yozuvchi ijodiy jarayonida turfa xil janrdagi asarlar yaratishga intilganligini kuzatish mumkin. Uning eng xarakterli asarlarining asosiy qismi hikoya janridagi asarlaridir. Bu hikoyalarsiz, o'zbek hikoyachiligini tasavvur etish juda mushkuldir.

Adabiyotlar tahlili

Janr taraqqiyotida Abdulla Qahhordan keyingi iste'dodli adiblardan biri, tabiiy ravishda Shukur Xolmirzayevdir: "Hikoyanavis sifatida qaysi mavzuni qalamga olmasin, albatta, qandaydir muhim, salmoqdor ijtimoiy fikrni ifodalashga harakat qiladi. Uning bu xususiyati adib tomonidan yaratilgan hikoyalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida surxon vohasining koloriti yaqqol sezilib turadi" [5, 72].

Tadqiqot metodologiyasi

Adibning turli janrdagi asarlari bilan bir qatorda, adibga shuhrat keltirgan va ijodkor sifatida mahoratini namoyon etishda hikoyachilikdagi poetik mahorati bejizga alohida e'tirof etilmyadi, chunki yozuvchining ilk asarlari ham hikoya janrida bo'lib, uning o'ziga xos uslubini yuzaga chiqarganligi qayd etadi.

Shukur Xolmirzayev qahramonlari dunyoqarashlaridagi o'zgarishlarning o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bu qahramonlarning aksari hayotiy jarayonlarni qanday bo'lsa shundayligicha emas, qayta tahlildan o'tkazib, mustaqil baholay oladigan; milliy, ma'naviy, madaniy qadriyatlarga yangicha nazar tashlovchi; ilg'or tafakkur tufayli jamiyatning ayrim luzumlariga dadil tanqidiy munosabat bildiruvchi kishilardir. Jamiyat, vaziyat yoxud sharoit unga ma'qul deb tiqishtirayotgan tartibot yoki yashash me'yorini rad etish, yoki hyech bo'lmaganda, o'ziga vujudidagi ikkinchi "men"ning noroziligini ma'lum qilish yozuvchi qahramonlarining yetakchi belgilaridir. Cho'lpon va Abdulla Qahhorning ayrim

asarlarini hisobga olmaganda, o'zbek hikoyachiligida uzoq vaqt tashviqiylik hukm surdi. 60-yillardan, sekin-sekin uning o'rnini badiiy tahlil egallay boshladi.

Bu jarayonda Sh.Xolmirzayev personajlari o'zbek hikoyachiligida qahramonlarning, ayniqsa, o'z-o'zidan qoniqmaslik va o'zini chuqurroq anglashga intilish ruhini mustahkamladi. Shu ma'noda adib o'z qahramonlarining ijtimoiy turmushdagi harakatlarini emas, balki ularning aql-zakovatini tasvirlashni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Adib tushunchasiga ko'ra, aql-zakovat qahramonning mehvaridir. Shu sababdan yozuvchini qahramon bajarayotgan ishlar, asarga asos qilib olingan voqyea natijasidan ko'ra, shu voqyea va natijaga munosabatdagi qahramon aql-zakovatining ochilish jarayonlari ko'proq qiziqtiradi.

Tahlillar va natijalar

Sh.Xolmirzayevning ayrim hikoyalari va undagi qahramonlar xarakteri nainki kitobxon yoki tanqidchi qalbida, ba'zan, hatto, asar muallifining o'zida ham aniq qaror topmagan bahsli munosabat uyg'otgandek tasavvur qoldiradi. Xususan, "Bandi burgut" hikoyasidagi badiiy talqinlarning o'ziyoq, ijodkorning poetik mahoratini namoyon qilgan.

Adib ijodini tabiatning jonli tasvirlari, bolalik va uning umidbaxsh xotiralari, hayotning achchiq haqiqatlarisiz, haqiqatlar yashiringan timsollarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Buni birgina "Bandi burgut" hikoyasi misolida ham ko'rish mumkin. Hikoyada tasvirlangan voqealar tuguni bir qarashda tabiiy jarayon – do'lda qolgan, kulangir tovuqcha keladigan yosh burgutning o'rik shoxiga ojizona kelib qo'nishi, qanotlari ho'lligidan yoniga osilib qolgani, ammo ko'zlari olazarak ekani bilan namoyon bo'ladi. Bu ko'rinishning o'ziyoq tabiat oldida nafaqat inson, balki har qanday kuchli jonzot ham ojiz, g'arib bo'lib qolishiga ishora qiladi. Asarni o'qish davomida kitobxon ham burgutni tutmoqchi bo'lgan bolalarga qo'shilib, dashtdan loy kechib, qishloq tomon keladi. Ammo burgutni topisha olmaydi, lekin yaqin o'rtadan bir baqiriq ovoz eshitiladiki, bu esa To'raqullarni hovlisidan, shundaygina yonidagi hovlidan eshitilayotganligini anglab qolishadi. To'raqullarning hovlisida endi burgutni oyog'i bog'liq holda ko'radi. O'quvchini dahshatga solgan to'ra bo'lsa, yana qul bo'lsa?! Uning oilasi juda nochor hayot kechirar, tinimsiz mehnat

qilib, bazo'rgina ro'zg'or tebratayotgan oilalarning biri sifatida tasvirlanadi. Qayd qilish kerakki, bu ramzlar orqali, davrning murakkab tomonlari bilan bir qatorda, inson hayotining og'ir qirralarini ham qalamga olib o'tadi.

Ozodlik ramzi bo'lgan qush endi bandi bo'lib, ojizlanib, qanotlarini yozib, yer bag'irlab yotibdi. Tirnoqlari yerga qadalgan, qutulishga harakat qilayotgani sezilib turibdi. Ammo To'raqulning onasi burgutni bolalarga berish o'rniga kolxoz raisining otda yurgan, qishloqning juldurvaqalariga qo'shilishni istamaydigan o'g'li Yo'ldoshboyning qo'liga tutadi. Inson menini asar qahramoni Yo'ldoshvoyning ruhiyati, xarakteriga singdirib yuboradiki, shu o'rinda insonni anglash naqadar murakkab jarayon ekanligini his etish mumkin.

To'g'ri, asar saksoninchi yillarning badiiy in'ikosi ekan, shu davrning xislatlarini, bolalarga xos tafakkur tarzini voqealar rivojiga singdirib yuboradi: "Yo'ldoshboy o'zimiz tengi yigitcha edi. Qo'shni sinfdan o'qirdi. Lekin juda yaxshi kiyinardi. Shunday kiyinardiki, bir-ikkita bolalar hasad qilganlaridan uning ust-boshini bir-ikki mar tayirtib tashlashgan edi. Menga u bola yoqardi, umuman, yaxshi o'qirdi, informatsiyaga boy edi. Biroq rais otalari xuddi To'raqul juldurning onasidek o'g'lini biz juldurvaqalarga qo'shib yurishini xohlamasdi, qarang, boylar ham ehtiyotkor bo'lishadi, a?" [6, 8]

Bu nimadan darak? Endi burgut ozodlikka chiqdim deya ko'kka parvoz qiladi, ammo nogoh oyog'idagi ipni payqab qolib, cheklangan ozodlik, nomigagina ozodlik ekanligini keyinchalik his etadi. Rais boboning xohish irodasiga ko'ra, belgilab berilgan masofadan uzoqqa ucholmasligiga fahmiy etadimi, yana taqdirga tan beradi, uchishdan sekinlab-sekinlab, ayvondan pastga qarab g'amgin osilib qoladi. Ana shunda burgut isyon qiladi. Endi oyog'iga kapron chilvir bog'lab uchirishni odat qilgan Yo'ldoshning ixtiyoriga bo'ysinmay Rais boboning mehmonxonasiga uchib kiradi va fosfor burgut tulumini sindirib tashlaydi va o'zi ham halok bo'ladi. Ermaktalab bolalar uni endi qabristonning bog' tomoniga shahid qatori ko'mishadi. Xuddi Ozodlik, Mustaqillik yo'lida kurashib halok bo'lgan shahid insonlardek e'zozlab ko'madilar.

Shukur Xolmirzayev “Bandi burgut” hikoyasida tarix haqiqatlariga tayangan holda o‘z qarashlarini, ijodiy mahoratini bandi burgut misolida namoyon etgan. Bundagi ramziy ma’no, insonni o‘zligini anglashga, olam va atrofga teranroq nazar solishga, bu dunyoning o‘tkinchiligiga, xalq, millat esa yashayverishiga, u ham ozod, erkin shaxs sifatida yashashga haqli ekanligini tasvirlardagi matn tarkibiga singdirib yuboradi.

Adabiyotdagi obrazlar asosida davr va muhitning muhim qirralari ochib beradi. Inson xarakterining o‘ziga xosliklari taqlin etiladi. Shuning uchun adibning “Bandi burgut” hikoyasida ham murakkab xarakterlar, bolalarga xos fazilatlariga singdirib yuborilgan. Yozuvchining xarakter yaratish jarayoni, milliy qadriyatlarga, an’analarga asoslangan bo‘lsa-da, inson xususiyatlarini anglash imkonini beradi.

Adibning yana bir asarlaridan biri “O‘zbek xarakteri” (1988) hikoyasini olib ko‘radigan bo‘lsak, hikoyada oddiy, sodda o‘zbekning ishonuvchanligi, mehnatsevarligi, odamiyligi, uning yashash sharoiti va boshqa jihatlari har bir o‘zbekka o‘z maskani hamda uyini eslatadi.

Shukur Xolmirzayev hikoyada qishloq hayotini kuz faslida paxta terimiga hasharga borgan Ergash nuqtai nazari orqali yoritadi. Hikoyada hasharchilarning nochor yashash sharoitini, ayrim yordamchilar orasidagi insoniylikka zid munosabatlarni ifodalovchi manzaralar bor. Bu holatni Botir cho‘ponning qo‘zisini talabalar O‘rmonjon, Azimjonlar tomonidan o‘g‘irlanishi misolida ko‘rishimiz mumkin.

Bu lavhalar o‘quvchilarga qahramonlar harakat qiladigan muhitni ko‘rsatish vositasi xolos. Yozuvchining asosiy maqsadi oddiy cho‘pon oilasiga munosabati orqali o‘zbeklarning o‘ziga xos xarakterini ko‘rsatib berishdir.

Ergash Botir cho‘ponning kambag‘alligini, tor uyda yashashini ko‘rib, ularga achinadi. Ularning dasturxonidan ovqat yeyishga tortinadi. Shuning uchun Botir cho‘ponning uyiga kam boradi. Go‘yo shu yo‘l bilan unga **yordam bergandek** bo‘ladi. Ergash bu ishlari bilan Botir cho‘ponning oilasini hammadan ko‘proq hurmat qilgandek bo‘ladi. Lekin bunday bo‘lib chiqmaydi.

Xayrlashuv paytidagi manzara Ergashning hayotga qarashini chil-parchin qilib tashlaydi.

“U kishi hamma bilan qo‘l berib xayrlashdi-yu, menga qolganda burilib ketdi. Shunda ayoli ham xo‘shlasha boshladi. qadoq qo‘llarining uchini berib xo‘shlasha-xo‘shlasha menga yetganda, uyam burilib ketdi.

Men titrab - qaqshab ularning oldiga bordim.

- Botir aka, opa... men sizlarni yaxshi ko‘raman, - dedim. - Xafa bo‘lmangizlar.

- Yo‘q, siz bizni yaxshi ko‘rmaysiz, - dedi xotini. - Boshida yomon ko‘rib edingiz.

- Rost, uka. Pisand qilmadingiz bizni, - dedi cho‘pon ham. Anavi yigitlar boshqacha...”[7, 76]

Bu - Ergashning yaxshi niyatda qilgan xatti - harakatlarining yomon natijaga olib kelganiga bir misol. “O‘zbek xarakteri” hikoyasidagi yaxshi niyatning yomon natija keltirishi - tabiiy holda sodir bo‘ladi. Fikrimizni asar yakunida Ergash tilidan aytilgan quyidagi parcha misolida ham kuzatamiz: “Men bu yerda... oddiy-jaydari, sodda o‘zbekning kengligi, to‘poriligini ko‘rdim.

Ishonasizmi, avtobusga o‘tirganimdan keyin sovuq oynadan laylakqorga qarab yig‘lar edim: ana shu o‘zbeklarning bag‘ri kengligi uchun, ne-ne qiyinchiliklarga, faqirlikka qaramay, fe‘li tor bo‘lmagan, ajib-afsonaviy mehmondo‘stligi instinkt kabi mavjud qolgani uchun... ichimda, ich-ichimdan quvonib yig‘lardim” [7, 77].

Adib asarlari qahramonlari aksari uning o‘zi tug‘ilib o‘sgan tuproq – Surxon diyorining mehnatkashlaridir. Asar voqealari sodir bo‘ladigan manzil ham ko‘pincha shu voha bo‘ladi. Shu voha qahramonlari timsoli misolida adib o‘zbek xalqining, o‘zbek tuprog‘ining o‘ziga xosliklarini tajassum etadi. Yozuvchi asar qahramonlarini oqlamaydi ham, qoralamaydi ham. Asosiy e‘tiborni ularning qalbi, ma‘naviyati, do‘stlarga, yangi hayotga, o‘zgarishlarga munosabatini ko‘rsatishga qaratadi va hukm chiqarishni o‘ziga qoldiradi. Adib asarlarining g‘oyalari bir-birini to‘ldirib boradi, tasvirlangan qahramonlar harakatidan, tabiatidan chiqarilgan

xulosalar bir-birini yanada boyitadi, milliy o'zligimizning turli qirralarini alohida xarakterlar orqali tasvirlab, xalq qiyofasidagi yaxlit qiyofaning turli jihatlarini ochib beradi.

Xulosalar

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayevning barcha asarlarida o'ziga xos ramziylik, majoziylik asosida inson ruhiyatini, davrning murakkab qirralarini, inson erki va g'ururini, jasoratini talqin etishga intiladi. Chunki yozuvchi asarlaridagi obrazlar olamiga nazar tashlar ekansiz, ularning ruhiy-ma'naviy olamini anglashga, xarakter xususiyatlarini his etishga kengiroq imkon beradi. Umumlashmalik asosida inson qiyofasini, uning ruhiy istiroblarini haqqoniy talqin etadi. Adibning turfa xil obrazlari insonni, muhitni, uning badiiy olamini anglashga imkon beradi.

Adabiyotlar

- 1.Hamidova M. Epik qahramon va uning tasviri // International Scientific Journal: Science and innovation, Series B. Volume 1 Issue 8, December 2022.-P. 1874-1879.
- 2.Hamidova M. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi // Namangan davlat universiteti axborotnomasi, 2021.- № 4.- B.331.
- 3.Hamidova M.O.Shukur Kholmirzayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Research 2020; 6 (5): 448-450.- B. 448-450.
- 4.Sodiq Sanjar. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. – Toshkent, O'qituvchi NMU, 2019. – 720 bet.
- 5.Tangirov R. Shukur Xolmirzayevning xarakter yaratish mahorati ("Bandi burgut" hikoyasi asosida) // Тил ва адабиёт.уз, 2024. -№ 5.-Б.71-72.
- 6.Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar:III jildlik.III jild: Hikoyalar.- Toshkent: Sharq, 2006.- 512 b.
- 7.Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar:III jildlik.II jild: Hikoyalar.- Toshkent: Sharq, 2006.- 248 b.